

"O'zkimyosanoat" AJ va Germaniyaning Linde GmbH kompaniyasi qator loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvni imzoladi

// 04 October 2023 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-germaniyaning-linde-gmbh-kompaniyasi-qator-loyihalarni-amalga-oshirish-bo-yicha-dastlabki-kelishuvni-imzoladi>



Joriy yilning 29-sentabr kuni Berlin shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari va Germaniya Federativ Respublikasi kansleri Olaf Shols ishtirokida sammit bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni alohida ta'kidladi. Tomonlar energetika va kimyo sanoati sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish masalalarini muhokama qilishdi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zkimyosanoat" Aksiyadorlik jamiyati va Germaniyaning Linde GmbH kompaniyasi bir qator loyihalarni amalga oshirishga kelishib oldi.

Tashabbus "Metanol-olefin" kompleksi uchun sintez gazi va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda vodorod ishlab chiqarish kabi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini birgalikda qurish imkoniyatlarini baholashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tomonlar O'zbekistondagi mavjud sanoat obyektlarini modernizatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish va mavjud infratuzilmalarni modernizatsiya qilish natijasida, karbonad angidrid tashlanmalari, elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish darajasini kamayishiga erishiladi, shuningdek, muqobil energiya manbalari hissasini oshiradi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot" strategiyasini amalga oshirishga hissa qo'shadi.